



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAHTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	101
Avazbek Xalbekov	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC	108
Musaeva Shoira Azimovna	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	116
Yuldashev Abduxakim Abdulkarimovich	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНА.....	122
Анвар Аллабергенов	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
Allanazarova B.K.	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	145
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH.....	149
Razikov Otabek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI.....	157
Matkabalova Dilorom Xalilullayevna	
MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida)	165
Bekjanov Dilmurod Yuldashevich	
Narmetova Dilafuz Azamatovna	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	170
Ахмедова Шахноза Козим кизи	
KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	175
Elbekov Jasur Ergash o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AHOLINING UZOQ MUDDATLI FOYDALANILADIGAN TOVARLAR BILAN TA'MINLANISH DARAJASINI MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASH.....	181
Sharipova Bibijon Baxtiyorovna	



ВНЕДРЕНИЕ ЦВЕТОВОЙ СИСТЕМЫ ПАКЕТОВ ДЛЯ РАЗДЕЛЬНОГО СБОРА ТВЁРДЫХ БЫТОВЫХ ОТХОДОВ В Г. ТАШКЕНТЕ: АДАПТАЦИЯ КОРЕЙСКОЙ МОДЕЛИ НА УРОВНЕ ДОМОХОЗЯЙСТВ	189
Джусупов Кубанычбек	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY MEKANIZMLARI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSION YECHIMLAR.....	196
Shamuratov Shahzod Janibek o'g'li	
SHAHARSOZLIKDA BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI JORIY ETISH	200
Eshov Sherko'zi Asatulloevich	
THE ROLE OF TAXES IN THE FORMATION OF LOCAL BUDGET REVENUES	205
Kimsanbaeva Maftuna Bakhodirovna	
DETERMINANTS OF STAKEHOLDER SATISFACTION WITH CUSTOMS CLEARANCE IN UZBEKISTAN: AN EMPIRICAL ANALYSIS	209
Khanifakhon Solikhova	
BANDLIKNI TA'MINLASHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI (Xorazm viloyati misolida).....	213
Z. Sh. Matniyozova	
JIZZAX VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH VA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI PROGNOZLASH	218
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	



JIZZAX VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH VA ISHLAB CHIQUARISH HAJMINI PROGNOZLASH

Umirova Gulmira Shodiboy qizi

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: umirovagulmira2@gmail.com

ORCID: 0000-0002-8865-0774

Annotatsiya: Maqolada Jizzax viloyati qurilish materiallari sanoatining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan hamda tarmoqning istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari prognoz qilingan. Tadqiqot davomida umumiy xarajatlar yalpi rentabelligining o'zgarishiga mahsulot sotishdan olingan sof tushumlar rentabelligi, mahsulot tannarxini qoplash darajasi va tannarxning umumiy xarajatlardagi ulushi ko'rsatkichlarining ta'siri multiplikativ model asosida baholandi. Shuningdek, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsion tahlil yordamida aniqlanib, ular o'rtasida kuchli musbat bog'liqlik mavjudligi ($R=0,882$) asoslandi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda Jizzax viloyati qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish hajmining 2025–2030-yillarga mo'ljallangan bazaviy, optimistik va pessimistik prognoz ssenariylari ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari sanoati, iqtisodiy samaradorlik, rentabellik, umumiy xarajatlar yalpi rentabelligi, omilli tahlil, multiplikativ model, mehnat unumdorligi, korrelyatsion tahlil, prognozlash, ishlab chiqarish hajmi, bazaviy ssenariy, optimistik ssenariy, pessimistik ssenariy, Jizzax viloyati.

Аннотация: В статье проанализированы основные факторы, влияющие на экономическую эффективность промышленности строительных материалов Джизакской области, а также спрогнозированы перспективные направления развития отрасли. В ходе исследования влияние рентабельности чистой выручки от реализации продукции, уровня покрытия себестоимости продукции и доли себестоимости в общих затратах на изменение валовой рентабельности общих затрат было оценено на основе мультипликативной модели. Кроме того, с помощью корреляционного анализа выявлена взаимосвязь между производительностью труда и объемом производства, обосновано наличие сильной положительной корреляции между ними ($R=0,882$). На основе результатов исследования разработаны базовый, оптимистический и пессимистический сценарии прогноза объемов производства в промышленности строительных материалов Джизакской области на 2025–2030 годы.

Ключевые слова: промышленность строительных материалов, экономическая эффективность, рентабельность, валовая рентабельность общих затрат, факторный анализ, мультипликативная модель, производительность труда, корреляционный анализ, прогнозирование, объем производства, базовый сценарий, оптимистический сценарий, пессимистический сценарий, Джизакская область.

Abstract: This article analyzes the main factors affecting the economic efficiency of the construction materials industry in the Jizzakh region and forecasts its future development trends. The study evaluates the impact of net sales revenue profitability, the cost recovery ratio of products, and the share of production costs in total expenditures on changes in the gross profitability of total costs using a multiplicative model. In addition, the relationship between labor productivity and production volume was determined through correlation analysis, revealing a strong positive correlation between the two variables ($R = 0.882$). Based on the research findings, baseline, optimistic, and pessimistic production volume forecast scenarios for the construction materials industry of the Jizzakh region for the period 2025–2030 were developed.

Keywords: construction materials industry, economic efficiency, profitability, gross profitability of total costs, factor analysis, multiplicative model, labor productivity, correlation analysis, forecasting, production volume, baseline scenario, optimistic scenario, pessimistic scenario, Jizzakh region.



KIRISH

Bugungi kunda qurilish materiallari sanoati mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoq qurilish, sanoat, transport va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarib, iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahonda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, yangi sanoat va logistika markazlarining tashkil etilishi qurilish materiallariga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va tarmoqning eksport salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4198-son "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida tarmoq korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahsulot tannarxini pasaytirish va eksport hajmlarini kengaytirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan [1]. Mamlakatda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategik yo'nalishlarida ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish, resurslardan samarali foydalanish hamda korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish ustuvor yo'nalishlar sifatida qayd etilgan [2].

Jizzax viloyati qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha muhim sanoat hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda sement, temir-beton buyumlari, plastmassa mahsulotlari va boshqa qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyat yuritmoqda. Tarmoq korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini maqbullashtirish va mehnat unumdorligini yuksaltirish hudud sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Biroq, qurilish materiallari sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholash, umumiy xarajatlar yalpi rentabelligining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash hamda ishlab chiqarish hajmlarining istiqboldagi rivojlanishini prognozlash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu sababli Jizzax viloyati qurilish materiallari sanoatida iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarni baholash va ishlab chiqarish hajmini prognozlash ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi Jizzax viloyati qurilish materiallari sanoatida iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarni baholash, umumiy xarajatlar yalpi rentabelligining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash hamda mehnat unumdorligi asosida 2025–2030-yillarga mo'ljallangan ishlab chiqarish hajmi prognozlarini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish natijalari va sarflangan resurslar o'rtasidagi nisbat orqali aniqlanib, korxonalar faoliyatining natijadorligi hamda raqobatbardoshligini tavsiflaydi. N.K. Borisyuk, L.A. Soldatova va T.G. Masyukovalar iqtisodiy samaradorlikni korxonalar rivojlanishining asosiy mezoni sifatida baholab, uni aniqlashda natijalar va xarajatlar nisbatiga asoslangan yondashuvni taklif etganlar [3].

Korxonalarining moliyaviy natijalarini baholashda rentabellik ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi. G.V. Savitskaya rentabellikni korxonalar faoliyati samaradorligini ifodalovchi asosiy nisbiy ko'rsatkich sifatida e'tirof etib, uni daromadlar, xarajatlar va kapitaldan foydalanish samaradorligi bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilish zarurligini asoslab bergan [4]. A.D. Sheremet va R.S. Sayfullin moliyaviy tahlil metodologiyasida rentabellik ko'rsatkichlarini korxonalarining moliyaviy barqarorligi va xo'jalik faoliyati natijadorligini baholashning muhim vositasi sifatida ko'rsatganlar [5].

V.Yu. Jdanov va I.Yu. Jdanov tadqiqotlarida moliyaviy koeffitsiyentlar tizimi asosida korxonalar faoliyatini baholash usullari takomillashtirilgan bo'lib, rentabellik ko'rsatkichlari investitsion jozibadorlik va moliyaviy barqarorlikni aniqlashning asosiy indikatorlaridan biri sifatida baholangan [6]. K.A. Timofeeva esa rentabellik ko'rsatkichlarini sotish rentabelligi, aktivlar rentabelligi, kapital rentabelligi va xarajatlar rentabelligi kabi guruhlariga ajratgan holda ularning iqtisodiy mazmunini yoritib bergan [7].

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari O.I. Azamatova tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish rentabellik darajasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslangan [8]. O.S. Aleshko qurilish materiallari sanoatini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini resurslar bilan ta'minlovchi strategik tarmoq sifatida baholab, uning rivojlanishi hududiy iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri ekanligini ta'kidlagan [9].

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini hududiy rivojlantirish masalalari V.A. Kudryavtseva tomonidan o'rganilgan bo'lib, muallif klasterlashuvning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va investitsion faollikni kuchaytirishga xizmat qilishini asoslab bergan [10]. I. Riley,



M. Burbidge va R. Wang tadqiqotlarida jahon sement sanoatining rivojlanish tendensiyalari, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilanish jarayonlari tahlil qilingan [11].

Mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash hamda iqtisodiy jarayonlarni prognozlash masalalari iqtisodiy-statistik tahlilning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. S.A. Ayvazyan iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliklarni baholashda korrelyatsion-regression tahlil usullaridan foydalanish iqtisodiy jarayonlarning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va prognozlash imkonini berishini ta'kidlaydi [12].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda iqtisodiy samaradorlik, rentabellik va qurilish materiallari sanoati korxonalarini faoliyatining ayrim jihatlari keng o'rganilgan. Biroq, qurilish materiallari sanoati korxonalarida umumiy xarajatlar yalpi rentabelligiga ta'sir etuvchi omillarni multiplikativ model asosida baholash hamda mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'liqlik asosida o'rta muddatli prognoz ssenariylarini ishlab chiqish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda Jizzax viloyati qurilish materiallari sanoatining iqtisodiy samaradorligini baholash va ishlab chiqarish hajmini prognozlash maqsadida iqtisodiy-statistik, qiyosiy, omilli, korrelyatsion tahlil hamda prognozlash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jizzax viloyati qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarining umumiy xarajatlar yalpi rentabelligi o'zgarishini chuqurroq tahlil qilish maqsadida quyidagi multiplikativ model ishlab chiqildi:

$$\frac{\text{yalpi foyda}}{\text{umumiy xarajatlar}} = \frac{\text{yalpi foyda}}{\text{sof tushum}} \cdot \frac{\text{sof tushum}}{\text{tannarx}} \cdot \frac{\text{tannarx}}{\text{umumiy xarajatlar}}$$

Ushbu tenglikda umumiy xarajatlarning yalpi rentabelligi darajasi mahsulot sotishdan olingan sof tushumlar rentabelligi, mahsulot sotishdan olingan sof tushumlarning sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati (mahsulot tannarxini qoplash darajasi) hamda mahsulot tannarxining umumiy xarajatlardagi ulushi ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liq ko'paytmasi sifatida ifodalangan. Mazkur yondashuv umumiy xarajatlar yalpi rentabelligi darajasining shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni alohida baholash, ularning ta'sir kuchi va yo'nalishini aniqlash hamda rentabellik ko'rsatkichidagi o'zgarishlarning iqtisodiy mazmunini chuqurroq ochib berish imkonini yaratadi. Shuningdek, ishlab chiqilgan multiplikativ model umumiy xarajatlar yalpi rentabelligining o'zgarishiga mahsulot sotish samaradorligi, tannarxni qoplash darajasi va xarajatlar tarkibidagi siljishlarning ta'sirini miqdoriy jihatdan baholashga xizmat qiladi.

Ushbu model asosida natijaviy ko'rsatkich hamda unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarining 2016–2025-yillardagi o'zgarish dinamikasi tahlil qilinib, natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Jadval ma'lumotlari umumiy xarajatlar yalpi rentabelligining shakllanish tendensiyalarini hamda uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning rolini aniqlash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval
Jizzax viloyati qurilish materiallari sanoati korxonalarining umumiy xarajatlar yalpi rentabelligi va unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlar dinamikasi, %da [4]

Yillar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025	2016-yilga nisbatan o'zgarishi
Ko'rsatkichlar											
mahsulot sotishdan sof tushum rentabelligi	16,8	35,6	31,6	25,3	39,3	41,9	42,7	39,4	36,0	38,8	+22,0
sof tushumlarning tan-narxni qoplash darajasi	120,2	155,3	146,3	134,0	164,7	172,2	174,5	165,1	156,3	163,5	+43,3
tannarxning umumiy xarajatlardagi ulushi	77,6	50,6	62,4	76,1	60,9	67,3	74,0	72,1	70,3	77,8	+0,2
umumiy xarajatlar yalpi rentabelligi	15,6	28,0	28,9	25,8	39,4	48,6	55,1	47,0	39,6	49,4	+33,8



Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish hajmining o'sishi ko'p jihatdan mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligiga bog'liq.

Shu sababli, Jizzax viloyati qurilish materiallari sanoatida mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichlarining 2015–2024-yillardagi dinamikasi tahlil qilindi (2-jadval).

2-jadval
Jizzax viloyati qurilish materiallari sanoati korxonalarida mehnat resurslari va ularning samaradorligi ko'rsatkichlari dinamikasi[4]

Yillar Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2015-yilga nisbatan o'zgarishi
	Bandlar soni, kishi	1595	1577	1660	2265	3155	4171	3500	4101	3830	
o'sish surati, %da	3,2	-1,1	5,3	36,4	39,3	32,2	-16,1	17,2	-6,6	-4,9	+128,3
ishlab chiqarish hajmi o'sishiga ta'siri, % bandda	3,3	-1,3	6,2	51,7	39,5	30,4	-24,0	16,7	-7,9	+11,0	+125,6
Mehnat unumdorligi, mln. so'm / kishi	89,7	122,5	166,6	313,6	317,3	283,1	611,1	579,2	824,1	825,8	+736,1
o'sish surati, %da	9,1	36,6	36,0	88,2	1,2	-10,8	115,8	-5,2	42,3	0,2	+820,7
ishlab chiqarish hajmi o'sishiga ta'siri, % bandda	9,2	36,4	37,0	105,1	1,4	-12,4	105,1	-5,7	40,8	-0,4	+316,5

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2015–2024-yillarda mehnat unumdorligi 89,7 mln so'm/kishidan 825,8 mln so'm/kishigacha oshgan. Natijada mazkur ko'rsatkich bazis yilga nisbatan 736,1 mln so'mga yoki 9,2 barobarga ko'paygan.

Ushbu davrda ishlab chiqarish hajmi ham barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsion tahlil yordamida baholandi.

Hisob-kitoblar natijasida korrelyatsiya koeffitsiyenti $R=0,882$ ekanligi aniqlandi. Mazkur natija Chaddock shkalasi bo'yicha kuchli musbat bog'liqlik mavjudligini anglatadi. Bu esa mehnat unumdorligi oshishi bilan qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi ham ortib borishini ko'rsatadi.

Aniqlangan bog'liqlik va vaqt qatori ma'lumotlari asosida ekstrapolyatsiya usuli yordamida 2025–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ssenariylari ishlab chiqildi. Prognozlashda uchta ssenariy qo'llanildi: bazaviy ssenariy; optimistik ssenariy; pessimistik ssenariy.

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2025–2030-yillarda mehnat unumdorligining o'rtacha yillik o'sishi bazaviy ssenariyda 29,7 foizni, optimistik ssenariyda 63,8 foizni va pessimistik ssenariyda 7,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Mos ravishda ishlab chiqarish hajmi o'sishiga mehnat unumdorligining hissasi bazaviy ssenariyda 27,7 foiz band, optimistik ssenariyda 53,6 foiz band va pessimistik ssenariyda 1,7 foiz band bo'lishi prognoz qilinmoqda (3-jadval).

3-jadval
Jizzax viloyati qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida mehnat unumdorligi va uning mahsulot hajmi o'sishiga qo'shadigan hissasi ko'rsatkichlarining 2025–2030-yillarda kutilayotgan o'rtacha darajalari

Ko'rsatkich nomi	Prognoz turi		
	Bazaviy	Optimistik	Pessimistik
Mehnat unumdorligining o'sishi, yiliga, foizda	29,7	63,8	7,5
Mehnat unumdorligi o'sishining qurilish materiallari o'sishiga qo'shadigan hissasi, yiliga, foiz band	27,7	53,6	1,7



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida Jizzax viloyati qurilish materiallari sanoatida iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar kompleks ravishda baholandi hamda ishlab chiqarish hajmining istiqboldagi rivojlanish tendensiyalari prognoz qilindi. O'tkazilgan tahlillar asosida umumiy xarajatlar yalpi rentabelligining shakllanishiga mahsulot sotishdan olingan sof tushum rentabelligi, sof tushumlarning mahsulot tannarxini qoplash darajasi va tannarxning umumiy xarajatlardagi ulushi bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan multiplikativ model umumiy xarajatlar yalpi rentabelligining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy baholash imkonini berdi. Tahlil natijalariga ko'ra, rentabellik darajasining o'sishiga eng katta ta'sir mahsulot sotishdan olingan sof tushum rentabelligi hamda mahsulot tannarxini qoplash darajasi omillariga to'g'ri kelishi aniqlandi. Bu esa korxonalarda sotish samaradorligini oshirish va xarajatlarni optimallashtirish iqtisodiy natijadorlikning muhim manbai ekanligini ko'rsatadi.

Mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni baholash natijasida ular orasida kuchli musbat korrelyatsion bog'liqlik mavjudligi ($R=0,882$) aniqlandi. Mazkur natija mehnat unumdorligining o'sishi qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmining ortishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot doirasida 2025–2030-yillarga mo'ljallangan bazaviy, optimistik va pessimistik prognoz ssenariylari ishlab chiqildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi bazaviy ssenariy bo'yicha 8 853 076,3 mln so'mga, optimistik ssenariy bo'yicha 13 813 390,9 mln so'mga, pessimistik ssenariy bo'yicha esa 4 693 966,0 mln so'mga yetishi mumkinligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- qurilish materiallari korxonalarida umumiy xarajatlar yalpi rentabelligini muntazam monitoring qilish tizimini joriy etish;
- mahsulot tannarxini pasaytirish va xarajatlarni optimallashtirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish;
- mehnat unumdorligini oshirish maqsadida ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish;
- xodimlarning kasbiy malakasini oshirish hamda innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanishni kengaytirish;
- ishlab chiqilgan prognoz natijalaridan tarmoqni strategik rivojlantirish dasturlarini shakllantirishda foydalanish.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan metodik yondashuv qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash, ichki imkoniyatlarni aniqlash va tarmoq rivojlanishining istiqboldagi yo'nalishlarini belgilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ–4198-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4207834?ONDATE=02.12.2025>
2. O'zsanoatqurilishmateriallari uyushmasi. Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish strategiyasi va yillik hisobot materiallari. – Toshkent, 2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining sanoat statistikasi: statistik to'plam. – Toshkent, 2024. – 312 b.
4. Борисюк Н.К., Солдатов Л.А., Масюкова Т.Г. Экономическая эффективность предприятия: понятие, способы определения, особенности повышения // Интеллект. Инновации. Инвестиции. – 2017. – № 8. – С. 14–20.
5. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – Минск : Новое знание, 2002. – 704 с.
6. Шеремет А.Д., Сайфуллин Р.С. Методика финансового анализа предприятия. – Москва : ЮНИ-ГЛОБ, 2010. – 215 с.
7. Жданов В.Ю., Жданов И.Ю. Финансовый анализ предприятия с помощью коэффициентов и моделей. – Москва : Проспект, 2024. – 176 с.
8. Тимофеева К.А. Система показателей рентабельности // Карельский научный журнал. – 2012. – № 1. – С. 33–35.
9. Азаматова О.И. Повышение эффективности деятельности промышленности строительных материалов // Шаг в науку. – 2019. – № 2.



10. Алешко О.С. Промышленность строительных материалов в ресурсном обеспечении экономического развития России // Научные труды Института народнохозяйственного прогнозирования РАН. – 2008. – № 6. – С. 439–461.
11. Кудрявцева В.А. Формирование и развитие регионального экономического кластера по производству строительных материалов: на примере Иркутской области : дис. ... канд. экон. наук. – Санкт-Петербург, 2013. – 209 с.
12. Riley I., Burbidge M., Wang R. Мировая цементная промышленность и технология: прошлое, настоящее и будущее // Цемент и его применение. – 2020.
13. Айвазян С.А. Прикладная статистика и основы эконометрики. – Москва : ЮНИТИ-ДАНА, 2019. – 687 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>